



**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



## METHODS OF EXPRESSING THE MASDAR IN UZBEK IN THR PROCESS OF TRANSLATION

**Hilola A. Yuldasheva**

*Doctor of Philological Sciences, Associate Professor*

*Department of Arabic Studies*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

[hilola\\_75@mail.ru](mailto:hilola_75@mail.ru)

*Tashkent, Uzbekistan*

**Shakhrizoda A. Ulashbaeva**

*1st-year Master's student*

*Department of Arabic Studies*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

[shakhrizoda189@gmail.com](mailto:shakhrizoda189@gmail.com)

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** masdar, translation, Arabic language, Uzbek language, grammatical transformation, verbal forms, nominalization, gerund, participle, context.

**Received:** 08.05.26

**Accepted:** 09.05.26

**Published:** 10.05.26

**Abstract:** This article examines the methods of expressing the masdar in Uzbek in the process of translation. The study focuses on the ways in which the Arabic masdar is rendered into Uzbek through various grammatical means, including verbal forms, participles, gerunds, and nominal constructions. The analysis shows that the choice of expression depends on the contextual and syntactic features of the sentence. The findings indicate that there is no single universal method of expressing the masdar, and different grammatical strategies are used depending on the functional role of the masdar in the text.

### TARJIMA JARAYONIDA MASDARNING O‘ZBEK TILIDA IFODALANISH USULLARI

**Hilola A. Yuldasheva**

*Filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Arabshunoslik oliy maktabi*

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti*

[hilola\\_75@mail.ru](mailto:hilola_75@mail.ru)

*Toshkent, O‘zbekiston*

**Shaxrizoda A. Ulashbayeva**

*1-kurs magistranti*

*Arabshunoslik oliy maktabi*

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti*

[shahrizoda189@gmail.com](mailto:shahrizoda189@gmail.com)

*Toshkent, O'zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit soʻzlar:** masdar, tarjima, arab tili, oʻzbek tili, grammatik transformatsiya, harakat nomi, ravishdosh, sifatdosh, kontekst.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarjima jarayonida masdarning oʻzbek tilida ifodalanish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda arab tilidagi masdarning oʻzbek tiliga turli grammatik vositalar, jumladan, feʼl shakllari, sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi orqali ifodalanishi koʻrib chiqildi. Tahlil natijalari masdarni ifodalash usuli gapning kontekstual va sintaktik xususiyatlariga bogʻliq ekanligini koʻrsatdi. Shuningdek, masdarni ifodalashda yagona universal usul mavjud emasligi va uning matndagi funksional vazifasiga qarab turli grammatik strategiyalar qoʻllanilishi aniqlandi.

---

### СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ МАСДАРА НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

**Хилола А. Юлдашева**

*Доктор филологических наук, доцент*

*Высшая школа арабистики*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

[hilola\\_75@mail.ru](mailto:hilola_75@mail.ru)

*Ташкент, Узбекистан*

**Шахризода А. Улашбаева**

*Магистрант 1 курса*

*Высшая школа арабистики*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

[shahrizoda189@gmail.com](mailto:shahrizoda189@gmail.com)

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** масдар, перевод, арабский язык, узбекский язык, грамматические трансформации, глагольные формы, отглагольные существительные, деепричастие, причастие, контекст.

**Аннотация:** В данной статье анализируются способы выражения масдара на узбекском языке в процессе перевода. В ходе исследования рассматриваются различные грамматические средства передачи арабского масдара, включая глагольные формы, причастия, деепричастия и отглагольные существительные. Результаты анализа показывают, что выбор способа выражения зависит от

---

контекстуальных и синтаксических особенностей предложения. Установлено, что универсального способа выражения масдара не существует, и используются различные грамматические стратегии в зависимости от его функциональной роли в тексте.

---

**Kirish.** “Masdar” (المصدر) so‘zi arab tilida “manba”, “kelib chiqish” ma’nolarini anglatadi, fe’ldan hosil bo‘lgan ism bo‘lib, fe’l ifodalaydigan harakat, sifat yoki holatni bildiradi (Abu-Shaqra, 2007, p. 162). U o‘zining nominal shakliga qaramay, semantik jihatdan harakat, jarayon va holatni ifodalash xususiyatiga ega bo‘lib, arab tilida keng qo‘llaniladi.

Tarjima jarayonida masdarni boshqa tillarga, jumladan o‘zbek tiliga o‘girish murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Bu, avvalo, arab va o‘zbek tillarining grammatik tizimidagi farqlar bilan izohlanadi. Xususan, masdarning bir vaqtning o‘zida ham nominal, ham verbal xususiyatlarga ega bo‘lishi uni tarjima qilishda turli ifodalash usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, tarjima jarayonida masdarning o‘zbek tilida qanday grammatik vositalar orqali ifodalanishini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi masdarning o‘zbek tilida ifodalanish usullarini aniqlash va ularning funksional-semantik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Arab tilidagi masdar muammosi tilshunoslikda keng o‘rganilgan. Xususan, Sibavayh masdarni “fe’l olingan harakatni bildiruvchi lafz” sifatida ta’riflaydi (Sibawayh, 1988, vol. 1, p. 12). Ushbu ta’rifga ko‘ra, masdar harakatning sof ifodasi bo‘lib, fe’l undan hosil bo‘ladi. Ibn Sarroj esa “Fe’llar masdardan kelib chiqqan va ishtiyoq qilingan”, – degan (Ibn Jinni, n.d., p. 4). Kufa maktabi aksincha pozitsiyani ilgari surgan. Unga ko‘ra, fe’l birlamchi birlik bo‘lib, masdar undan hosil bo‘ladi. Ular o‘zlarining ishtiyoq haqidagi fikrlarini quyidagicha dalillashga harakat qilganlar. B. M. Grande masdarni fe’l tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kategoriya sifatida tavsiflab, uning harakatni umumlashgan holda ifodalash xususiyatini ko‘rsatadi (Grande, 1963). N.D. Finkelberg esa masdarning ma’nosi ko‘p hollarda uning kontekstual va sintaktik qo‘llanilishiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi (Finkelberg, 2010).

Tarjimashunoslik nuqtai nazaridan A.D. Shveyser tillar o‘rtasidagi tizimli farqlar tarjima jarayonida turli grammatik transformatsiyalarni keltirib chiqarishini qayd etadi (Shveyser, 1988). Bu holat, ayniqsa, arab tilidagi masdarni boshqa tillarga o‘girishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Masdar tarjimasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar orasida L.S. Tyurevaning ilmiy maqolasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda masdarni faqat nominal shaklda emas, balki turli fe’l vositalari orqali ifodalash zarurligi asoslab berilgan (Tyureva, 2023, pp. 89-98).

Mazkur tadqiqotda arab tilidagi masdarni o‘zbek tilida ifodalash usullarini aniqlash maqsadida tavsifiy, qiyosiy va funksional-semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida arab tilidagi matnlardan bir nechta gaplar tanlab olindi va o‘zbek tiliga tarjima variantlari ko‘rib chiqildi.

Tahlil jarayonida masdarning turli grammatik vositalar, jumladan, fe‘l, ravishdosh, ot va harakat nomi orqali ifodalanishi o‘rganildi. Har bir holatda masdarning semantik xususiyatlari aniqlanib, ularning tarjimada ifodalanishi tahlil qilindi.

**Natijalar.** Mazkur tadqiqotda arab tilidagi masdarni o‘zbek tilida ifodalash usullari bir necha misollar asosida tahlil qilindi.

Arabiy jumla	O‘zbek tiliga tarjima
نشطت موسكو تحركاتها الدبلوماسية واتصالاتها مع الأطراف المختلفة لتطويق تصعيد عسكري محتمل في مناطق شمال شرقي سوريا.	Moskva Shimoliy-Sharqiy Suriya hududlarida ehtimoliy harbiy keskinlashuvning <b>oldini olish uchun</b> turli tomonlar bilan diplomatik harakatlari va aloqalarini faollashtirdi.
أكد أن كل القوى السياسية وافقت على ضرورة الإصلاح الأمني.	U barcha siyosiy kuchlar xavfsizlik tizimi <b>islohoti</b> zarurligiga rozi bo‘lganini ta’kidladi.
يقرر المجلس دعم منظمة التحرير الفلسطينية بكل الوسائل، لتمكينها من مواجهة حرب الإبادة التي يشنها العدو الإسرائيلي عليها.	Kengash Isroil tomonidan olib borilayotgan genotsidga <b>qarshi kurashish imkonini berish uchun</b> Falastin Ozodlik Tashkilotini barcha vositalar bilan qo‘llab-quvvatlashga qaror qildi.
أعلنت وزارة النقل السورية الخميس العثور على ١٥ شخصا متوفين قبالة الشواطئ السورية.	Suriya transport vazirligi ma’lum qilishicha, payshanba kuni Suriya sohillari yaqinida 15 kishining jasadlari <b>topilgan</b> .
أعربت المتحدثة باسم البيت الأبيض لدى سؤالها عن هذه المناورات العسكرية عن قلق الولايات المتحدة.	Oq uy matbuot kotibi ushbu harbiy mashg‘ulotlar haqida <b>so‘ralganida</b> Amerika Qo‘shma Shtatlari xavotirda ekanligini bildirdi.
أكد السوداني استمرار بغداد في أداء دورها في استضافة الحوار السعودي – الإيراني.	As-Sudaniy Bag‘dod Saudiya–Eron muloqotiga mezbonlik qilishdagi o‘z rolini <b>bajarishda davom etishini</b> ta’kidladi. (rolida davom etishini yoki bajarishdan to‘xtamasligini deyish ham mumkin)

Jadvalda keltirilgan misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi masdar o'zbek tiliga tarjima jarayonida turli grammatik vositalar orqali ifodalanadi va bu tanlov masdarning kontekstdagi funksional hamda semantik xususiyatlariga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Xususan, maqsad ma'nosini ifodalovchi konstruktsiyada masdar harakat nomi shaklida berildi: "تطويق" birligining "oldini olish" tarzida ifodalanishi arab tilidagi "li + masdar" konstruktsiyasining o'zbek tilida "-ish uchun" modeli orqali berilishi bilan izohlanadi. Bunday hollarda harakat nomi maqsadni aniq va ixcham ifodalash imkonini beradi. "Oldini olish" birligi lug'atga ko'ra "keskinlashuv qamali uchun" shaklida ot bilan ifodalanishi ham mumkin.

Keyingi misolda esa "الإصلاح" birligi "islohot" tarzida tarjima qilinib, bu yerda abstrakt tushuncha sifatida qo'llanildi. Bu holat uning terminlashgan birlikka aylanganini ko'rsatadi. Yuqoridagi tarjimada ot bilan ifodalangan bo'lsa-da, "yaxshilash, isloh qilish" shaklida harakat nomi bilan ham kelishi mumkin.

Murakkab sintaktik konstruktsiyalarda, xususan "لتمكينها من مواجهة" kabi birikmalarda masdarlar o'zbek tilida ketma-ket harakat nomlari orqali ifodalandi. "Qarshi kurashish imkonini berish" shakli orqali har ikkala masdar o'zaro bog'langan holda, subordinativ munosabatda bo'ladi. Bu esa o'zbek tilining sintaktik xususiyatlariga mos keladi.

Shu bilan birga, informativ xarakterga ega gapda masdar fe'l shakliga o'tkazildi. "العثور" birligining "topilganini ma'lum qildi" tarzida ifodalanishi gapning predikativ markazini kuchaytiradi va nutqning tabiiyligini ta'minlaydi. Bu holatda majhul nisbatdagi fe'l shakli qo'llanilib, harakatning natijaviyligi oldinga chiqadi.

Vaqt va qo'shimcha harakat ma'nosini ifodalovchi konstruktsiyada esa masdar ravishdosh orqali berildi. "سؤالها" birligining "so'ralganida" (yoki "so'rashganda") tarzida tarjima qilinishi natijasida gapda shaxssiz konstruktsiya (impersonal construction) hosil bo'ladi. Bu holatda diqqat markazi harakat bajaruvchisidan ko'ra harakatning sodir bo'lish paytiga ko'chadi, natijada gap sintaktik jihatdan ixcham va tabiiy shaklga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, "استمرار" va "أداء" kabi masdarlar o'zbek tilida harakat nomi shaklida "bajarishda davom etish" tarzida ifodalandi, "bajarishdan to'xtamaslik" kabi shaklda ot bilan ham berilishi mumkin. Bu esa masdar tarjimasida semantik moslashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi masdarni o'zbek tilida ifodalashda yagona universal model mavjud emas. Har bir holatda grammatik vosita tanlovi masdarning kontekstdagi funksiyasi, semantik yuklamasi va gapning sintaktik tuzilishiga bog'liq holda amalga oshiriladi. Arabcha masdarlarning o'zbekcha muqobillari faqat lug'aviy ma'no bilan emas, balki gapning kommunikativ vazifasi bilan belgilanadi. Masdarning sifatdosh, ravishdosh

yoki terminlashgan ot bilan ifodalanishi o‘zbek tili grammatik tizimining moslashuvchanligini va axborotni yetkazishda fe‘l shakllarining ustuvorligini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqotda tarjima jarayonida arab tilidagi masdarni o‘zbek tilida ifodalash usullari tahlil qilindi va olingan natijalar tadqiqot boshida qo‘yilgan maqsadga erishilganligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida masdar o‘zbek tilida turli grammatik vositalar orqali ifodalanishi, xususan, fe‘l, ravishdosh, ot va harakat nomi yordamida berilishi aniqlandi.

Masdarni ifodalashda tanlanadigan vosita uning gapdagi funksional vazifasi va semantik yuklamasiga bevosita bog‘liqligi, xususan, masdar fe‘l shakllari orqali ifodalanganda harakatning dinamik va faol jihati kuchayishi, ravishdosh orqali berilganda esa qo‘shimcha jarayon ma‘nosi yuzaga chiqishi, harakat nomi esa umumlashgan va nisbatan statik ifodani ta‘minlashi keltirilgan jumlar asosida xulosa qilindi. Bu esa masdar tarjimasida moslashuvchan va funksional yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abu-Chacra, F. (2007). Arabic: An essential grammar. – Abingdon: Routledge. – 355 p. (in English)
2. Fawcett, P. (2014). Translation and language: Linguistic theories explained. – Abingdon: Routledge. – 172 p. (in English)
3. Finkelberg, N. D. (2010). Arabic language: Theory and technology of translation. Arabskiy yazyk: Teoriya i tekhnologiya perevoda. – Moscow: Vostochnaya kniga. – 400 p. (in Russian)
4. Grande, B. M. (1998). Course of Arabic grammar in a comparative-historical perspective. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osveshchenii. – Moscow: Vostochnaya literatura. – 439 p. (in Russian)
5. Hasanov, M. (2015). Arabic language. Arab tili. – Tashkent: Invest Book. – 348 p. (in Uzbek)
6. Ibn Jinni, A. F. (n.d.). The brilliance in Arabic. Al-Luma‘ fi al-‘Arabiyya. – Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya. – 171 p. (in Arabic)
7. Shveyser, A. D. (1988). Translation theory: Status, problems, aspects. Teoriya perevoda: Status, problemy, aspekty. – Moscow: Nauka. – 216 p. (in Russian)
8. Sibawayh, A. U. (1983). The Book (A. S. Harun, Ed.). Al-Kitab. – Cairo: Maktabat al-Khanji. – Vol. 1. – 446 p. (in Arabic)
9. Tyureva, L. S. (2023). The problem of translating masdar from Arabic into Russian. Problema perevoda masdara s arabskogo yazyka na russkiy. – Moscow: Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo lingvisticheskogo universiteta. Gumanitarnye nauki. – No. 11

(879). – pp. 89-96. (in Russian) <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-perevoda-masdara-s-arabskogo-yazyka-na-russkiy>